

**GOSPITAL TA'LIM O'QUVCHILARIGA PSIXOLOGIK XIZMAT
KO'RSATISH USULLARI**

Umarova Iroda Zafarovna

*Maktabagcha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi "Mehrli maktab" davlat
ta'lim muassasasi Andijon viloyati filiali psixolog*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10038061>

ANNOTATSIYA: “Bolalar gematologiyasi, onkologiyasi va klinik immunologiyasi markazida davolanayotgan bolalar uchun maktabgacha ta'lim va tarbiya hamda umumiy o'rta ta'lim berish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Vazirlar Mahkamasining qarori (234-son, 05.05.2022-y.) qabul qilindi. Qarorga ko'ra, Bolalar gematologiyasi, onkologiyasi va klinik immunologiyasi markazida davolanayotgan bolalarga maktabgacha ta'lim va tarbiya hamda umumiy o'rta ta'lim berish jarayonlarini samarali tashkil etish uchun “**Mehrli maktab**” davlat ta'lim muassasasi tashkil etildi. Mana shunday muassasalarda bolalarga ta'limning sifatli va mukammal ravishda yetkazib berishda o'ziga psixologik xizmatning ham o'rni yuqori. Shuning uchun bu yo'nalishda psixologning ham o'rni beqiyos. Mazkur maqolada shu kabi masalalar ilgari surilgan bo'lib, ko'pchilik uchun foydali bo'ladi degan umiddamiz.

Kalit so'zlar: “Mehrli maktab”, pedagog, psixologik yordam, sharoit, davlat muassasasi, gospital guruhlar, muhit.

Hozirgi kunda yurtimizda olib borilayotgan islohotlar, ta'limga qaratilyotgan e'tibor va keng ko'lamli ishlarning natijasi o'laroq 2022-yilning 5-mayida “Bolalar gematologiyasi, onkologiyasi va klinik immunologiyasi markazida davolanayotgan bolalar uchun maktabgacha ta'lim va tarbiya hamda umumiy o'rta ta'lim berish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida”gi hukumat qarori qabul qilindi. Ushbu qarorning natijasi sifatida bolalar gematologiyasi, onkologiyasi va klinik immunologiyasi markazida davolanayotgan bolalarga maktabgacha ta'lim va tarbiya hamda umumiy o'rta ta'lim berish jarayonlarini samarali tashkil etish uchun “Mehrli maktab” davlat ta'lim muassasasi tashkil etildi va o'z faoliyatini boshladi. Kamol topishda nuqsoni bor bolalarning kamchiligini o'z vaqtida bilish, kasalini davolash, pedagogik ta'sir ko'rsatish, muayyan ijtimoiy natijalarga erishish imkonini beradi hamda bu bolalarni kamol topishini ta'minlaydi, ularni mакtabda beradigan bilimlarni o'zlashtirib olishga, so'ngra esa jamiyatning foydali a'zolari bo'lib etishishga yordam beradi. Bugungi kunda yurtimizda ta'limga katta e'tibor qaratilmoqda. Xususan, imkoniyati cheklangan bolalar uchun ham shart-sharoitlar yaratilmoqda. Mehrli maktab yuridik shaxs maqomiga ega hisoblanadi. Mehrli mакtabda quyidagi maktabgacha guruhlar faoliyat ko'rsatishi mumkin:
-Maktabgacha ta'lim gospital guruhlari – statsionar davolanayotgan, sog'lig'i sababli maktabgacha ta'lim tashkilotlariga bora olmaydigan 2 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun davolash-profilaktika muassasalarida tashkil etilgan guruhlar. -Ilk rivojlanish

yoshidagi bolalarga mo‘ljallangan o‘yin guruhlari – 1,5 yoshdan 2 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun statsionar davolash-profilaktika muassasalarida tashkil etiladigan guruhlar.

Ularda parvarish qilish va nazorat qilish ishlari ota-onalarning faol ishtirokida tashkil etiladi.

-Maktabgacha ta’lim gospital guruhlari, ilk rivojlanish yoshidagi bolalarga mo‘ljallangan o‘yin guruhlari. Davolanayotganlarni maktabgacha gospital guruhlariiga qabul qilish Mehrli mакtab tomonidan taqdim etiladigan ro‘yxatlar asosida amalga oshiriladi. Markazda davolanayotganlar uchun alohida ishlab chiqilgan o‘quv rejasi asosida 1–11-sinflar hajmida umumiy o‘rta ta’lim beriladi. Dars mashg‘ulotining davomiyligi boshlang‘ich ta’limning 1–4 sinflarda – 35 daqiqa, 5–11 sinflarda – 40 daqiqa bo‘ladi. Bunda bir kunlik dars mashg‘ulotlari 1–4 sinflarda 3 soatdan, 5–11 sinflarda 4 soatdan oshmasligi lozim. O‘quv haftasi davomiyligi 5 kunlik asosida olib boriladi. Alohida ta’kidlab o’tish kerakki, “Mehrli mакtab”da bolalarga umumta’lim fanlari o’tilishi bilan bir qatorda alohida bolalarning ruhiy rivojlanishi, pisixik holatini yaxshilash maqsadida har bitta bola bilan alohida mashg‘ulot o’tkazuvchi pisixolog ko’magi ham yo’lga qo’yilgan. Bu esa davolanayotganlar uchun juda muhim.

Bu kabi amaliy ishlar ularning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’limtarbiyaning metodlarini ishlab chiqish hamda ularni jamiyatning foydali kishisi qilib tarbiyalashga xizmat qiladi. “Mehrli mакtab” o‘z oldiga qator maqsadlarni qo’yan, ular quyidagilardan iborat: -Mehrli mакtabda davolanayotganlarning hayotga ijtimoiy moslashishini, ularning maktabgacha ta’lim tashkilotlari hamda umumta’lim muassasalarida ta’limni davom ettirishga tayyorligini ta’minlash; -Mehrli mакtabda davalanayotganlarning hayoti va sog’ligi muhofazasini ta’minlash; -ularga ta’lim va tarbiya xizmatlarini ko’rsatish. Yuqorida maqsadlardan ko’rinib turibdiki, “Mehrli mакtab”larda darslarni samarali tashkil qilish yuqori pedagogik mahoratni talab qilishi bilan bir qatorda mas’uliyatli ish hamdir.

Shu bilan bir qatorda “Mehrli mакtab” o‘z oldiga qator vazifalarni ham belgilab olgan bular quyidagilar:

- davolanayotganlarning umumiy o‘rta ta’limning Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi asosida uzluksiz ta’lim olishlarini ta’minlash;
- davolanayotganlarning aqliy va jismoniy rivojlanishiga yordam beradigan shart-sharoitlar yaratish;
- davolanayotganlarning individual qobiliyatlarini rivojlantirish, iqtidorli va qobiliyatli bolalarni taqdirlash va qo’llab-quvvatlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;
- davolanayotganlarning pisixofiziologik yosh xususiyati, qobiliyat, qiziqishi hamda hayoti va sog’ligi muhofazasi talablariga muvofiq ravishda ta’lim olishlarini ta’minlash;
- ta’lim jarayonida davolanayotganlarning sog’ligini himoyalovchi dars jadvaliga rioya etilishini ta’minlash;
- davolanayotganlarning darsdan tashqari vaqtlarida iqtidorini rivojlantirishga qaratilgan to’garak mashg‘ulotlarini olib borish. Bolalar gematologiyasi, onkologiyasi va klinik immunologiyasi markazida davolanayotgan bolalarga pisixologik ko’mak berish uchun turli metodlardan foydalanish maqsadga muvofiқdir.

Bular quyidagilar: 1.Kuzatish metodi. Kuzatish metodi tabiiy metodlar jumlasiga kiradi. O'z - o'zini kuzatish esa odam o'zida kechayotgan biror o'zgarish yoki hodisani o'zi o'rganish maqsadida ma'lumotlar to'plash va qayd etish usulidir. Erkin kuzatuv ko'pincha biror ijtimoiy hodisa yoki jarayonni o'rganish maqsad qilib qo'yilganda qo'llaniladi. Tashqi kuzatuv mohiyatan kuzatiluvchi xulq - atvorini bevosita tashqaridan turib, kuzatish orqali ma'lumotlar to'plash usulidir. Dars jarayonida bolalarning u yoki bu mavzu yuzasidan umumiy munosabatlarini bilish uchun ham ba'zan erkin kuzatish tashkil etilishi mumkin. Standartlashtirilgan kuzatuv esa, buning aksi bo'lib, nimani, qachon, kim va kimni kuzatish qat'iy belgilab olinadi va maxsus dastur doirasidan chiqmasdan, kuzatuv olib boriladi. Ijtimoiy hamda pedagogik psixologiyada guruhiy jarayonlarning shaxs xulq - atvoriga ta'sirini o'rganish maqsadida bevosita ichkaridan kuzatuv tashkil qilinadi, bunda kuzatuvchi shaxs o'sha guruh yoki oila hayotiga tabiiy ravishda qo'shiladi va zimdan kuzatish ishlarini olib boradi.

Shu yo'l bilan olingen ma'lumotlar bir tomonidan tabiiyligi va mufassalligi bilan qimmatli bo'lsa, ikkinchi tomonidan, agar kuzatuvchida konformizm xislati kuchli bo'lsa, o'zi ham guruh hayotiga juda kirishib ketib, undagi ayrim hodisalarini subyektiv ravishda qayd etadigan bo'lib qolishi ham mumkin.

Guruhiy fenomenlarni tashqaridan kuzatish buning aksi

- ya'ni kuzatuvchi guruhga yoki kuzatilayotgan jarayonga nisbatan chetda bo'ladi va faqat bevosita ko'zi bilan ko'rghan va eshitganlari asosida xulosalar chiqaradi. Umuman, kuzatish metodining ijtimoiy hayot, professional ko'rsatkichlarni qayd qilishda so'zsiz afzalliklari bor, lekin shu bilan birga kuzatuvchining professional mahorati, kuzatuvchanligi, sabr - qanoatiga bog'liq bo'lган jihatlar, yana to'plangan ma'lumotlarni subyektiv ravishda tahlil qilish xavfi bo'lgani uchun ham biroz noqulayliklari ham bor, shuning uchun ham u boshqa metodlar bilan birgalikda ishlatiladi.

2. So'rov metodi psixologiyaning barcha tarmoqlarida birlamchi ma'lumotlar to'plashning an'anaviy usullaridan hisoblanadi. Unda tekshiriluvchi tekshiruvchi tomonidan qo'yilgan qator savollarga muxtasar javob qaytarishi kerak bo'ladi. Agar mabodo uning professional mahorati yoki tajribasi bunga yetarli bo'lmasa, so'rov o'z natijalarini bermasligi mumkin.

3. Test metodi. Ushbu metod yordamida inson ruhiy kechinmalariga aloqador bo'lган noyob ma'lumotlarni to'plash imkoniga ega bo'ladi. Testlar turli bo'lishi mumkin:

- Shaxs xususiyatlarini tekshiruvchi testlar.

- Muloqot sistemasidagi o'rnini aniqlash

- Aqliy sifatlarini tekshiruvchi testlar. Testlarni qo'llashni qulaylik tomoni shundaki bir test yordamida ma'lum ob'ektning u yoki bu xususiyatini bir necha marta takror-takror sinab ko'rish mumkin. Lekin ularni umumi deb bo'lmaydi, chunki u yoki bu test muayyan turdag'i ob'ektda sinalgan bo'lsa, uni shunga o'xshash obyektlardagina qo'llash ham mumkin bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <https://www.gazeta.uz/uz/2022/01/28/mirziyoyev/>
2. <https://lex.uz/docs/5992724>

3. <https://xs.uz/uzkr/post/talim-tarbiya-tizimi-taraqqiyotning-yangi-bosqichi>
muhokama-qilindi <https://uza.uz/posts/33187>
4. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида” ги Қонуни. //Олий таълим меъёрий ҳужжаталари. — Т.: Шарқ, 2001. -ББ. 3-18
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 05.05.2022-yildagi 234-son qarori
6. Ш.Мирзиёев. Ўзбекистон президенти Шавкат Мирзиёев Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисида сўзлаган нутқи.
7. Bespalko V.P. Pedagogik texnologiyaning tarkibiy qismlari. - M .: Pedagogika, 1989 .-- 192 b
8. Guzeev V.V. Mashg'ulotlarning tashkiliy shakllari va usullari. - M .: Xalq ta'limi, 2011 .-- 128 b.